



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
REKTORINING BUYRUG‘I

2025 - yil “ 6 ” martdagi

№ 17-IB

Toshkent sh.

TDSHU ichki loyihalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680-sonli qarori 13-bandida belgilangan Amir Temur, Allsher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud Zamaxshariy va boshqa buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, tili, madaniyati va tarixiga oid yozma manbalarni o‘rganish hamda Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari tarixi, antropologiyasi, tili va adabiyoti, ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, ichki va tashqi siyosatini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2025-yil 1-martdagi 7-sonli Kengash qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ilovada keltirilgan ichki ilmiy loyihalar 2025-yil fevral-mart oylaridan 2025-yil dekabr oyigacha amalga kiritilsin va 2025-yil oxiriga qadar loyiha hisobotlari Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasiga topshirilsin.

2. Loyiha rahbarlari hamda loyihalarning vaqtinchalik ilmiy ijodiy jamoasi tarkiblari tasdiqlansin.

3. **Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i N.Karimov, loyiha rahbarlariga:**

Amalga kiritilayotgan loyihalar sifatli olib borilishi hamda natijadorligini oshirish chora-tadbirlari ko‘rilsin.

4. **Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor Sh.Mirziyatov, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i S.Tashturdiyev, Bosh hisobchi G.Rahimovalarga:**

Loyiha natijalari monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma (har biri 50 ta donadan), platforma yaratish bilan bog‘liq xarajatlar universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplansin.

4.1. Loyihasi ijobiy yakunlagan, universitet manfaatlariga xizmat qilgan loyiha rahbarlari universitetning moliyaviy imkoniyatlari doirasida lavozim maoshiga nisbatan 50 foizgacha moddiy rag‘batlantirilsin hamda rag‘batlantirish universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan berilsin.

5. **Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i N.Karimovga:**

Mazkur buyruq nusxalari o'rnatilgan tartibda ijro uchun mas'ul etib belgilangan xodimlarga yetkazilishi ta'minlansin.

5. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor D.Sayfullayev zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



G.Rixsiyeva

TDSH Uda amalga oshirilayotgan ichki ilmiy loyihalar ro'yxati

№	Loyiha nomi	Loyiha rahbari
1.	Madaniyatlararo ko'prik: O'tkir Xoshimov durdonasini tarjima qilish (“Dunyoning ishlari” asari) (bosma va elektron kitob, xalqaro ilmiy seminar va konferensiya qilinadi)	Marxabo Abdullayeva
2.	Inklyuziv Creative Writing (ijodiy yozuv) va raqamli Storytelling (Markaz tashkil qilinadi)	Saodat Saidakbarova
3.	Ingliz tili fanidan mustaqil ta'lim onlayn platformasini yaratish	Karima Raxmanberdieva
4.	Bolalar va o'smirlar adabiyoti – jamiyat oynasi (Sharq xalqlari bolalar va o'smirlar adabiyotining antologiyasi yaratiladi)	Oydin Turdiyeva
5.	Ko'zi ojiz talabalar uchun koreys tili fani bo'yicha brayl yozuvidagi darslik yaratish (A level)	Dilfuza Abbasova
6.	Jadid adabiyotida tarjimaning o'rni (monografiya)	Rustam Sharipov
7.	Arab hikoyalari antologiyasi	Dilafruz Muxiddinova
8.	“Toshkent shahrini kashf etamiz” – indonez tilida kontentlar jamlanmasini yaratish	Nasiba Abduganiyeva
9.	“Hindistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohasidagi hamkorligi (tarixiy ildizlari va zamonaviy holati)” ilmiy-tahliliy ma'lumotlar bazasini yaratish	Hilola Mustapova
10.	Sharq mamlakatlarida gender siyosati bo'yicha raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish	Nargiza Niyazova
11.	O'zbekistonda aralash saylov tizimi va partiyalararo raqobat ilmiy-tahliliy platformasini yaratish	Ravshan G'oziyev
12.	Markaziy Osiyo mintaqasidagi zamonaviy xalqaro munosabatlar bo'yicha analitik kompendiumni ishlab chiqish	Suhrob Bo'ronov
13.	Xolid Abdulazizning “Amaliy grammatika” darsligi tarjimasi	Sharustam Shamusarov
14.	O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan “Arba'in” qo'lyozma asarlari tavsifi va tasavvufga oid “Arba'in” asarlar tarjimasi	Malohat Pulatova
15.	“Markaziy Osiyo joy nomlari bo'yicha ilmiy-izohli GeoLexicon (IX-XII asr manbalari asosida)”	Zuhriddin Alimov

16.	Markaziy Osiyo etnologiyasiga hissa qo'shgan olimlar haqida akademik kompendium ishlab chiqish	Alisher Doniyorov
17.	Islom psxologiyasining shakllanish tarixi va tarixshunosligi nazariy modelini yaratish (Hakim Termiziy asarlari misolida)	Nodir Karimov
18.	Madaniy antropologiya: hunarmandchilikning madaniy antropologik dimensiyasini modellashtirish	Bobir Odilov
19.	Развитие Саудовского общества в конце XX – начало XXI век	Suriya Tursunova